Fuqarolik sudlarida sud xarajatlarini undirish:

milliy va xorijiy tajriba

Sudga murojaat qilish – sud orqali himoyalanish huquqini, fuqarolarning huquq va erkinliklarini ta’minlash kafolatlaridan biridir. Sud orqali himoya qilish davlat tomonidan fuqarolarning huquq va erkinliklari, qonuniy manfaatlarini himoya qilishning asosiy vositalaridan biri hisoblanib, u odil sudlovni ta’minlash orqali amalga oshiriladi.



Sudlarga murojaat qilish bilan sud xarajatlarini to‘lash o‘rtasidagi bog‘liqlikdan kelib chiqib, sohaga oid qonunchilikka takliflar berish maqsadga muvofiq. Bu esa xorij amaliyotini o‘rganishni taqozo qiladi.

O‘zbekistonning “Davlat boji to‘g‘risida”gi qonuniga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritilganligi munosabati bilan, shuningdek, sudlar qonun normalarini bir xil va to‘g‘ri qo‘llashini ta’minlash, fuqarolik ishlari bo‘yicha sud xarajatlarini undirish amaliyotida mavjud kamchiliklarni bartaraf qilish maqsadida Oliy sud plenumi “Fuqarolik ishlari bo‘yicha sud xarajatlarini undirish amaliyoti to‘g‘risida”gi 37-qarorini qabul qildi. Unda sud xarajatlarini undirish bilan bog‘liq ko‘p masalalar yoritilgan.

Jumladan, qarorining 11-bandida “Davlat boji to‘g‘risida”gi qonunning 8-moddasiga asosan davlat boji to‘lashdan ozod qilingan shaxslarning talablarini qanoatlantirish yoki qanoatlantirishni rad etish bilan bog‘liq masalalarga tushuntirish berilgan. Shu bilan birga, ushbu qonunning 19-moddasi yigirma uchinchi qismida davlat boji to‘lashdan ozod qilingan davlat organlari hamda boshqa shaxslar tomonidan yuridik va jismoniy shaxslarning manfaatlarini ko‘zlab bildirilgan talablarni qanoatlantirish rad etilgan yoki ular qisman qanoatlantirilgan taqdirda davlat boji ariza qaysi shaxslarning manfaatlarini ko‘zlab taqdim etilgan bo‘lsa, shu shaxslardan da’voning qanoatlantirilishi rad etilgan qismiga mutanosib ravishda undirilishi ko‘rsatilgan.



Germaniya Fuqarolik protsessual kodeksining 79-moddasiga koʻra kam qiymatdagi nizolar yoki mahalliy sudlarda (Amtsgericht) taraflar advokatsiz ishtirok etishlari mumkin. Niderlandiyadan farqli oʻlaroq, Germaniya qonunchiligi advokatlar uchun toʻlovlar miqdorini belgilashda qatʼiy normalarga amal qiladi. Advokatlar xizmat haqlarini "Rechtsanwaltsvergutungsgestz", yaʼni "Advokatlarga haq toʻlash toʻgʻrisida"gi qonuniga asoslanib hisoblaydi.

Davlat organlari hamda boshqa tashkilotlar tomonidan topshirilgan ariza, apellyatsiya, kassatsiya, taftish shikoyatlarini qabul qilishda sudlar manfaati koʻzlangan yuridik va jismoniy shaxslarning bunday murojaatga roziligini tekshirishi lozimligi taʼkidlangan.

Sud xarajatlari masalasi faqat bizda emas, xorijiy davlatlarning sud tizimida ham muhim oʻrin egallaydi. Masalan, Germaniyada davlat boji masalasi "Zivilprozessordnung" – Fuqarolik protsessual kodeksida hamda "Gerichtskostengesetz" – "Sud xarajatlari toʻgʻrisida"gi qonunda yoritilgan. Fuqarolik sud ishlarini yuritish eng rivojlangan davlatlardan biri – Niderlandiyada fuqarolik sud ishlari xarajatlarini undirish "Wetboek van burgerlijke rechtsvordering" – Fuqarolik protsessual kodeksi va "Wet griffierechten burgerlijke zaken" – "Sud xarajatlari toʻgʻrisida"gi qonunga asoslanadi. Ushbu davlatlarda sud xarajatlarini undirishni tartibga soluvchi boshqa qonunchilik hujjatlari ham bor.

Qisqa qilib aytganda sud xarajatlari sud ishini koʻrib chiqish jarayonida yuzaga keladigan moliyaviy xarajatlarning umumiy yigʻindisidir. Oʻzbekiston Fuqarolik protsessual kodeksiga koʻra sud xarajatlari davlat boji hamda ishni koʻrib chiqish bilan bogʻliq boshqa chiqimlarni oʻz ichiga oladi. Davlat boji fuqarolik sudlariga beriladigan daʼvo arizalaridan, arizalardan, apellyatsiya, kassatsiya, taftish shikoyatlaridan daʼvo bahosiga qarab yoki nomoddiy ishlarda belgilab qoʻyilgan stavkaga qarab undiriladi. Ishni koʻrib chiqish bilan bogʻliq boshqa chiqimlar esa ishning turiga va alohida holatlariga qarab pochta xarajatlari, videokonferensaloqa xarajatlari, ishga jalb qilingan ekspert, mutaxassis, tarjimon va boshqalar uchun undiriladigan xarajatlardan iborat boʻladi.

Niderlandiyada sud xarajatlari davlat boji, ishni koʻrishga oid chiqimlar (ekspert, tarjimon, mutaxassis xarajatlari va h.), advokat xarajatlari hamda mediator va ijrochi xarajatlarini (ambshandelingen) oʻz ichiga oladi.

Albatta, Niderlandiya fuqarolik ishlari bo‘yicha sudlarida har doim advokat ishtirok etishi majburiy bo‘lmasa-da, Fuqarolik protsessual kodeksining 79-moddasiga asosan nikohdan ajrashish hamda mulkiy nizolarda advokatning ishtiroki shart hisoblanadi. Mazkur kodeksning 93-moddasiga asosan esa 10 000 yevrogacha bo‘lgan kichik moliyaviy talablar uchun taraflar advokat yollamasdan ishda qatnashishlari mumkin. Advokat uchun to‘lovlarning aniq stavkasi keltirilmagan. Chunki u advokat va mijoz o‘rtasidagi shartnoma bilan belgilanadi. Advokatlar soatlik (odatda soatiga 150 yevrodan 500 yevrogacha) yoki fiksatsiyalangan (bir ishni to‘liq bajarib berganlik uchun) to‘lov shaklida haq olishadi.

Sud ijrochilariga oid xarajatlar esa “Ambshandelingen” uchun amalga oshiriladi. Ambshandelingen deganda sud ijrochilari yoki boshqa davlat amaldorlari tomonidan qonuniy majburiyatlarni bajarish doirasida qilinadigan harakatlar (rasmiy xizmatlar) tushuniladi. Bu harakatlar qonunda belgilangan tartibda amalga oshiriladi va ko‘pincha sud qarorlarini ijro etish yoki yuridik jarayonlarni qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan. Ambshandelingen ogohlantirish va chaqiruvni yetkazish, sud qarorini ijro etish, taqiqlash yoki cheklov belgilash, ipoteka yoki qarz masalalarida rasmiy yozuvlarni qayd etish kabi ishlarni o‘z ichiga oladi. Ba’zi jihatlariga ko‘ra bu O‘zbekistondagi Majburiy ijro byurosini eslatib yuborsa-da, lekin ambshandelingen ishlarini bajaruvchi organlarning vakolatlari kengroq. Niderlandiya qonunchiligida ijrochilar uchun to‘lovlar “Wet op de gerechtsdeurwaarders” (“Sud ijrochilari to‘g‘risida”gi qonun) hamda unda keltirilgan “tarieflijst gerechtsdeuwaarders”da (sud ijrochilari tariflar ro‘yxati) belgilab qo‘yiladi.

Germaniyada ham sud xarajatlarining o‘zgacha turlari bor, bu haqda “Sud xarajatlari to‘g‘risida”gi qonunidan bilib olish mumkin. Germaniyada sud xarajatlari davlat boji, advokat xizmati uchun to‘lov, guvohlarning yo‘lkira xarajatlari, mutaxassis hamda ekspertlarga to‘lanadigan pulni o‘z ichiga oladi[1].

Germaniyada ham Niderlandiyadagi kabi fuqarolik ishlari bo‘yicha sudlarda advokat qatnashishi shart bo‘lgan holatlar mavjud. Bu talab Fuqarolik protsessual kodeksining 78-moddasi orqali tartibga solinadi. Advokat ishtiroki Oliy darajadagi sudlar: yuqori mintaqaviy sudlar (Oberlandesgericht) va Federal Oliy sudda (Bundesgerichtshof) majburiydir. Shuningdek, murakkab va yuqori qiymatdagi nizolar uchun advokat ishtiroki talab etiladi.

Germaniya Fuqarolik protsessual kodeksining 79-moddasiga ko‘ra kam qiymatdagi nizolar yoki mahalliy sudlarda (Amtsgericht) taraflar advokatsiz ishtirok etishlari mumkin. Niderlandiyadan farqli o‘laroq, Germaniya qonunchiligi advokatlar uchun to‘lovlar miqdorini belgilashda qat’iy normalarga amal qiladi. Advokatlar xizmat haqlarini “Rechtsanwaltsvergutungsgestz”, ya’ni “Advokatlarga haq to‘lash to‘g‘risida”gi qonunga asoslanib hisoblaydi. Bu qonunda advokatlar xizmatlari qiymati sud ishining murakkabligiga va qiymatiga bog‘liq holda o‘zgaradi. Qonunda advokat to‘lovlari uchun minimal miqdorlar belgilangan bo‘lib, ularga to‘lanadigan haq qonunda belgilangan bazaviy miqdorlardan oz bo‘lishi mumkin emas[2].



Niderlandiya va Germaniya fuqarolik sud ishlarini yuritishda davlat boji va sud xarajatla-

[1] German Law Archive (germanlawarchive.iuscomp.org)
[2] Official German Government Resources (bundesjustizamt.de).

rini taqsimlashning umumiy asoslari O‘zbekiston qonunchiligiga o‘xshab ketadi.

“Sud xarajatlari to‘g‘risida”gi qonunga ko‘ra Niderlandiyada davlat boji da’vo bahosining miqdoriga asosan chiqariladi. Davlat boji oshgani sari miqdori ham oshib boradi. Bizda da’voning bahosiga qarab foizlarda davlat boji chiqarilsa, Niderlandiyada qat’iy summada undiriladi[3]. Masalan, kichik qiymatli ishlar uchun minimal miqdor belgilansa, yirik moliyaviy manfaatdorlik mavjud ishlar uchun davlat boji yuqori miqdorda belgilanadi. Qat’iy miqdorlar da’vo qiymatiga qarab jismoniy shaxslar uchun 79 yevrodan boshlanadi. Yuridik shaxslar uchun esa maksimal davlat boji miqdori 3946 yevroga yetishi mumkin. Bundan tashqari, birinchi instansiya sudlariga murojaat qilganda kichikroq summa undirilsa, apellyatsiya va kassatsiya sudlariga to‘lanadigan boj miqdori 5270 yevroga yetishi mumkin[4].

Niderlandiyada sud xarajatlarini taqsimlash “Algemene Wet inzake Rijksbelastingen” (“General Court Fees Regulation”) deb nomlanuvchi alohida qonun bilan tartibga solingan. Ushbu qonun yordamida Niderlandiyaning butun sud tizimidagi to‘lov va xarajatlar taqsimoti va nazorati amalga oshiriladi. Sud xarajatlarini to‘lash odatda O‘zbekiston qonunchiligidagi kabi “yutqazgan tomon xarajatlarni qoplaydi” tamoyiliga asoslanadi[5].

Yuqoridagi taqqoslardan ko‘rish mumkinki, O‘zbekiston ham sud ishlarini yuritish, xususan, sud xarajatlari bilan bog‘liq masalalarda Yevropadan qolishmaydi, bu uch davlat qonunchilik tizimida o‘xshashliklar ko‘p. Ammo rivojlantirish kerak bo‘lgan ba’zi jihatlar bor. Masalan, eng qiziq ko‘ringan jihat Yevropa davlatlarida davlat bojini hisoblashda fuqarolar va yuridik shaxslarning moddiy ahvoli inobatga olinishidir. Agar sharoiti to‘g‘ri kelmasa, davlat bojidan voz kechiladi yoki xarajat davlat hisobidan qoplanadi. Bizda esa bu borada “Davlat boji to‘g‘risida”gi qonun bilan belgilangan qat’iy qoidalarga amal qilinadi. O‘zbekiston qonunchiligida bu masala tenglikka asoslanadi. Ya’ni sharoiti juda yaxshi bo‘lgan shaxs ham, ahvoli og‘ir shaxs ham bir xil miqdorda boj to‘laydi. Moliyaviy ahvoli og‘ir shaxsga ham faqat davlat bojini kechiktirish yoki bo‘lib-bo‘lib to‘lash imtiyozi beriladi.

> Sud xarajatlari sud ishini ko‘rib chiqish jarayonida yuzaga keladigan moliyaviy xarajatlarning umumiy yig‘indisidir. O‘zbekiston Fuqarolik protsessual kodeksiga ko‘ra sud xarajatlari davlat boji hamda ishni ko‘rib chiqish bilan bog‘liq boshqa chiqimlarni o‘z ichiga oladi.

Tatbiq qilishni o‘ylab ko‘rishga arzigulik ikkinchi masala sud xarajatlarini hal qiluv qarori chiqib bo‘lganidan keyin to‘lash masalasidir. Bu amaliyot ko‘p ovoragarchiliklarning oldini oladi. Masalan, O‘zbekistonning fuqarolik ishlari bo‘yicha sudlariga murojaat qilinganda davlat boji oldindan to‘lanadi. Agar da’vogarning da’vosi qanoatlantirilsa, u oldindan to‘lab qo‘ygan boj javobgardan da’vogarga undirib beriladi. Bundan tashqari, agar ishga ekspert, mutaxassis yoki tarjimon jalb etilsa, ularga ketadigan chiqimlar ham qayta hisob-kitob qilinib, oxirida undiriladi. Bu esa ortiqcha ovoragarchilikni keltirib chiqaradi. Agar davlat boji ish yakuni bo‘yicha sudning hal qiluv qaroriga asosan taqsimlanib undirilsa barcha xarajatlar birlashadi va chalkashliklar bo‘lmaydi.

Lekin O‘zbekistonda davlat bojining barcha turdagi da’volar bo‘yicha qat’iy belgilangan summada emas, mulkiy nizolar bo‘yicha foizlarda undirilishi bizning qonunchilikning ustun jihati deb hisoblash mumkin. Tasavvur qiling, Germaniyada 1000 yevrogacha bo‘lgan ishlar uchun 81 yevro boj undiriladi. Agar da’vo bahosi 1100 yevrodan 5000 yevrogacha bo‘lsa 150 yevro boj to‘lanadi. 1000 yevro undirishni so‘ragan shaxs 81 yevro to‘laydi, 1100 yevro undirish uchun esa deyarli ikki barobar ko‘p to‘lashi kerak. Bu esa Germaniya va Niderlandiya qonunchiligining o‘ziga xosligi hisoblanadi.

Nargiza SULAYMONOVA,
Toshkent davlat yuridik universiteti
Fuqarolik protsessual va iqtisodiy protsessual huquqi kafedrasi
katta o‘qituvchisi

[3] https://www.government.nl/topics/administration-of-justice-and-dispute-settlement/the-dutch-court-system
[4] https://www.amsadvocaten.com/blog/litigation/what-costs-can-you-expect-if-you-want-to-take-legal-action-in-the- netherlands/
[5] https://www.maak-law.com/legal-costs-and-fees-in-the-netherlands/.